

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03.30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BURANOVA JAZIRA YERGASH QIZI

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON
IQTISODIYOTINING INKLYUZIV O‘SISHINI TA’MINLASH**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Buranova Jazira Yergash qizi

Raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv
o‘shini ta’minlash 3

Буранова Жазира Ергаш кизи

Обеспечение инклюзивного роста экономики Узбекистана в
условиях цифровой трансформации..... 31

Buranova Jazira Ergash kizi

Ensuring inclusive growth of the economy of Uzbekistan in the context of
digital transformation..... 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03.30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BURANOVA JAZIRA YERGASH QIZI

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON
IQTISODIYOTINING INKLYUZIV O‘SISHINI TA’MINLASH**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasining www.tsue.uz hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshov Mansur Pulatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sadikov Shoxrux Shuxratovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-27; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashev va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayib borayotgan sharoitida inklyuziv o'sish, ya'ni barcha aholi qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlarning barqaror va adolatli kengayishini nazarda tutadigan o'sish, davlat iqtisodiy siyosatidagi eng muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya dunyoda iqtisodiy o'sishning asosiy unsuriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, "raqamlashtirish 2025-yilga borib, jahon iqtisodiyotiga 6,8 trillion AQSh dollarini qo'shishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, raqamli tengsizlikning chuqurlashish xavfi mavjud. McKinsey tadqiqotlari bo'yicha, jahon aholisining 45 % internetga kirish imkoniga ega emas"¹, bu esa ularning raqamli iqtisodiyotda qatnashish imkoniyatlarini cheklaydi. Raqamlashtirish sharoitida inklyuziv o'sish ko'plab mamlakatlar uchun eng muhim maqsad bo'lib qolmoqda. Jahon bankning ma'lumotlariga ko'ra, "2022-yilda dunyo bo'yicha kambag'allik darajasi 9,2 %ni tashkil etdi, bu esa raqamlashtirish jarayonlarida aholining barcha qatlamlari manfaatlarini inobatga olish zaruratini yanada yaqqol ko'rsatadi"². Raqamlashtirish iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishi mumkin, lekin bu rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar orasidagi tafovutning kuchayishiga olib kelmoqda.

Jahon hamjamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida raqamli transformatsiyaning ahamiyati oshib borishi sharoitida inklyuziv iqtisodiy o'sish va uning barqarorligiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirishning ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirgan holda, barqaror va inklyuziv o'sishga qo'shgan hissasini baholash, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning uzoq muddatli barqarorligi uchun o'sishning inklyuzivligini e'tiborga olish, texnologiyalar o'zgarishlari, ekologik muammolar va global iqtisodiy inqirozlarning inklyuziv o'sishni ta'minlashga ta'siri, sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlarga kirish, ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kompleks iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarni tahlil qilish, inklyuziv o'sishni qo'llab-quvvatlovchi samarali modellar va usullarni ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi inklyuziv iqtisodiy o'sishni yaxshilashda katta yutuqlarga erishmoqda. Kelajakda mamlakatning iqtisodiy va inklyuziv o'sishida raqamli iqtisodiyotning muhim o'rnini inobatga olib, hukumat tomonidan raqamli transformatsiyani tezlashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida YaIMning hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yilgan. Barcha imkoniyatlarni mobilizatsiya qilish orqali bu ko'rsatkich shu yilning o'zida 110 milliard dollar darajasida kutilmoqda. Agar bunday sur'at saqlanib qolsa, 2030-yilga kelib, mamlakat iqtisodiyoti 200 milliard dollarga yetkazilishi mumkin. Bu aholining hayot darajasi va sifatini keskin

¹ <http://www.mckinsey.com/~media/McKinsey/Featured%20Insights/Middle%20East%20and%20Africa/Tackling%20COVID%20in%20in%20Africa/Tackling-COVID-19-in-Africa-final.ashx>

² <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/33541>

oshirish uchun asos bo‘ladi”³. Davlat sog‘liqni saqlash sohasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi, bu sog‘liqni saqlash infratuzilmasini yaxshilash va aholi uchun tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini oshirishga olib keldi, shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar va aeroportlarning rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy barqarorlikni saqlashga asoslangan inklyuziv o‘shini ta‘minlashda moliyaviy jihatdan kambag‘allikni kamaytirish, aholi orasidagi daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni bartaraf etish, ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirish, ish bilan ta‘minlash sohasidagi hududiy va gender jihatdan farqlarni qisqartirish, sog‘liqni saqlash va ta‘limga kirish imkoniyatlarini tenglashtirish muammolarini hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 20-dekabrda PF–223-son “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrda PF–158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyulda PF–165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 8-aprelda PF–101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 27-fevralda PQ–78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 14-oktyabrda PQ–358-son “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 31-dekabrda PQ–467-son “Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyulda PQ–307-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martda 128-son “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024–2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-fevralda 83-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy

³ Parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish davri. 20.11.2024. - <https://president.uz/ru/lists/view/7716>

rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inklyuziv iqtisodiy o‘shni ta‘minlash va unga ta‘sir qiladigan omillar ko‘plab olimlar va mualliflar tomonidan o‘rganilgan. Iqtisodiy o‘sh masalasi taniqli iqtisodchi-olimlardan A.Smit, D.Rikardo, R.Solou, P.Samuelson, P.Daymond, G.Bekker, P.Romer, U.Nordxaus, O.Galor va boshqalar tomonidan chuqur tadqiq etilgan⁴. Dj.Stiglis, D.Adjemoglu, Dj.Robinson, T.Piketti va boshqa olimlarning ilmiy ishlari inklyuziv iqtisodiy o‘sh konsepsiyasini ommalashtirish va uning amaliyotda qo‘llanishi zaruriyatiga olib keldi⁵. Shuningdek, ushbu masalalar rossiyalik iqtisodchilar, jumladan, Ye.G.Rusakov, I.A.Kirshin, A.A.Levinkov, T.D.Romashenko va boshqalarning ishlarida ham o‘rganilgan⁶.

Raqamli transformatsiya va uning inklyuziv iqtisodiy o‘shga ta‘siri ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar Ali, Tano, Kristyanto va Jamil, Xi va Wang, Guo, Tabarak va Bxat, Dubey, shuningdek, Sun va Tang tomonidan olib borilgan⁷. Shunga e‘tibor berish kerakki, ushbu tadqiqotlarda asosan miqdoriy yondashuvlar qo‘llanilgan va empirik modellar yordamida ular inklyuziv iqtisodiy o‘shga ta‘sirni prognoz qilishga harakat qilgan. Shunday qilib, bu tadqiqotlar mos sohalar uchun yanada qimmatli va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda iqtisodiyotning inklyuzivligini ta‘minlash, shuningdek, bu jarayonga ta‘sir qiladigan omillar va indikatorlar K.Abduraxmonov, B.Berkinov, N.Maxmudov, K.Mambetjanov, Sh.Mustafakulov, M.Askarova, A.Vaxabov, Sh.Shodmonov, U.G‘afurov, T.Sadullayev, X.Abulqosimov, N.Xolbayev va boshqalarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan⁸.

⁴ Смит, А. Исследования о природе и причинах богатства народов. С примечаниями Бентама, Бланки, Буханана, Гарье, Мак-Кулоха, Мальтуса, Милля, Рикардо, Сэя, Сисмонди и Тюрго / пер. П.А. Бибики. В 3 т. Т. 1-3. СПб.: В тип. И.И. Глазунова, 1866.

⁵ Аджемоглу Д., Робинсон Дж. 2020. Почему одни страны богатые, а другие бедные. Москва : АСТ. 693 с.

⁶ Воронин А.Ю. Макроэкономика - 1: учебное пособие / А. Ю. Воронин, И. А. Кишин. – Москва: ИНФРА-М, 2020. - 110 с.

⁷ Aly, H. (2020). Digital transformation, development and productivity in developing countries: is artificial intelligence a curse or a blessing? *Review of Economics and Political Science*. Dubey, R. S. Vohra, D. D. Singh S. (2024). Digitalization for Inclusive Growth in India. *International Journal of Engineering and Management Research*, 14(4), pp. 4-11. Sun, Y. and Tang, X. (2022). The impact of digital inclusive finance on sustainable economic growth in China. *Finance Research Letters*, 50, 103234. Tabarak, A. K. and Bhat, J. A. (2023). Digital transformation for economic development: Prospects and challenges. *International Journal of Creative Research Thoughts*, 11(8), pp. 347-351. Guo, B. Feng, Y. Lin, J. (2023). Digital inclusive finance and digital transformation of enterprises. *Finance Research Letters*, 57 (104270). Xi, W. and Wang, Y. (2023). Digital financial inclusion and quality of economic growth. *Heliyon*, 9 (2023), e19731. Kristyanto, V. S. and Jamil, H. (2023). Digital transformation and its impact on inclusive growth: a four-decade experience in Indonesia. *Jurnal Ekonomi & Studi Pembangunan*, 24(2), pp. 346-367. Tan, N. N. Ngan, H. T. T. Hai, S. N. Anh, L. H. (2022). The Impact of Digital Transformation on the Economic Growth of the Countries. *ResearchGate Online Journals*.

⁸ Абдурахманов К. Человеческий фактор и интересы являются высшей ценностью в Узбекистане. – Т.: НМИУ им. Гафура Гулама, 2017. – 364 с; Беркинов Б.Б. Институционал иктисодиёт: Ўқув кўлланма. 2-нашр, қайта ишланган. – Т.: Иктисодиёт, 2013. – 226 б. Шодмонов Ш., Алимов Р., Джораев Т. Экономическая теория. – Т.: «Финансы», 2002. – 416 с.; Теоретико-методологические основы обеспечения экономики и пропорциональности. Ш.Шодмонов (и др.): ТДИУ. Монография. - Т.: АДИБНАШРИЁТИ, 2010. 256 с.; Н. Махмудов, Х.Ҳақимов. Макроиктисодий барқарорликни мустаҳкамлаш-барқарор иктисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шартлари// Иктисодиёт ва таълим. - Т.: №2, 2017. 7-11 б; Асқарова М.Т., Амиров Л.Ф., Исломов А.А., Яхшимуратова А.Р. Инклюзив иктисодий ўсиш: Ўқув кўлланма. –Т.:2019.-234 б. Махмудов Н.М. Пути повышения роли денежно-кредитной политики в обеспечении макроэкономической стабильности

Shuningdek, O.Saidova inklyuzivlikni ta'minlash omillaridan biri sifatida raqamli transformatsiya, G.Kuldosheva O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning muammolari va imkoniyatlari, M.Xodjayev O'zbekistonda elektron hukumatni joriy etish, F.Xakimov mamlakatda raqamlashtirish siyosati, G.Mamedova raqamlashtirish va uning bank sektoriga ta'siri masalalarini tadqiq qilishgan⁹. Shunga e'tibor berish kerakki, O'zbekistonda olib borilgan ushbu tadqiqotlar sifatli ma'lumotlar va sifatli tahlilga asoslangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida "Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi"dagi o'rnini baholashning O'zbekiston uchun "milliy modeli"ni ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishning determinantlarini aniqlash va ularning mamlakatda kambag'allikni kamaytirish va daromadlarni teng taqsimlashga ta'sirini o'rganish;

O'zbekistonda inklyuziv o'sish darajasini iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni hisobga olish orqali aniqlash;

O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning taraqqiyotini, bir qator miqdoriy o'lchovlar, indikatorlar va tahlil vositalari orqali tahlil qilish;

raqamli transformatsiyaning inklyuziv o'sishga ta'sirini empirik modellar orqali ko'rsatish;

O'zbekistonda raqamlashtirish asosida inklyuziv iqtisodiy o'sishni rivojlantirish uchun empirik ma'lumotlarga asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekt bo'lib O'zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida inklyuziv o'sishni ta'minlash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib raqamli transformatsiya sharoitida inklyuziv o'sishni ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

и экономического роста // Материалы Республиканской научно-практической конференции. - Т.: ТДИУ. 2015, стр. 23-29; Мухаммедов Ю. Факторы и эконометрические модели устойчивого социально-экономического роста (на примере Республики Узбекистан): Iqt.fan.doc. ...дисс.: ТДИУ, -Т., 2006. -504 с; Абулкасимов Х., Беркинов Б. Государственная макроэкономическая политика. -Т.: ТДИУ, 2007. -198 с;

⁹ Saidova, O. Kh. (2023). Digital transformation of the economy of Uzbekistan. Innovative Development in Educational Activities, 2(22), pp. 246-254.; Kuldosheva, G. (2021). Challenges and opportunities of digital transformation in the public sector in transition economies: examination of the case of Uzbekistan. ADB Working Paper, No. 1248.; Khodjaev, M. (2004). E-Government implementation and administrative reform in Uzbekistan – interrelations and interference. UNDP Digital Development Initiative Programme (UNDP DDI) and Center for Economic Research (CER).; Khakimov, F. (2022). Uzbekistan's digitalization policy: achievements and prospects. Uzbridge Electronic Journal, 1, pp. 24-34.; Mamedova, G. K. (2023). The impact of digitization on the banking sector of Uzbekistan. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 4(5), pp. 142-146.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida statistik, iqtisodiy va matematik tahlillar, ekonometrik modellashtirish, taqqoslash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "milliy iqtisodiyotning inklyuziv o'sishi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mamlakat aholisining barcha qatlamlari va ijtimoiy guruhlari iqtisodiy o'sish natijalari va imkoniyatlaridan teng va adolatli foydalanishini ta'minlovchi, kambag'allikni qisqartirish, bandlik darajasini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni yaxshilashga qaratilgan barqaror iqtisodiy taraqqiyot modelini raqamlashtirish imkoniyatlari jihatidan takomillashtirilgan;

aholiga davlat tomonidan ko'rsatiladigan barcha ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari raqamli texnologiyalar negiziga o'tkazishda ijtimoiy to'lov va subsidiyalarni belgilash va taqdim etish ($ITS=0,56$), monitoring qilish va baholash ($MB=0,28$), ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni avtomatlashtirish ($IXA=0,16$) jarayonlari o'rtasidagi maqbul nisbatlarini belgilash orqali amalga oshirish taklifi asoslangan;

uslubiy yondashuvga ko'ra milliy iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini ta'minlashda davlat, jamiyat va biznes o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va o'zaro hamkorlik mexanizmini barqaror bandlikni ta'minlash, mehnat samaradorligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan "ijtimoiy shartnoma" orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning inklyuziv o'sishi va raqamli transformatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sohani raqamlashtirish orqali majburiy ijtimoiy kafolatlardan, jumladan, ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish taklif etilgan;

aholiga bevosita mahalla darajasida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini joriy etish taklif etilgan;

oilalarni kambag'allikdan chiqarish va ularning yana kambag'allikka tushib qolishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

ishsiz fuqarolarni mehnat bozorida talab katta bo'lgan kasblarga, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'qitishni kengaytirish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil natijalarining iqtisodiy-matematik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyotning inklyuziv o‘shini ta‘minlash maqsadlariga mos ravishda takomillashtirish, rivojlantirish va boyitishga xizmat qilishi, O‘zbekistondagi inklyuziv iqtisodiy o‘sh darajasi iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotning inklyuziv o‘shini ta‘minlash yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlar, dasturlar va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda, shuningdek, tadqiqot natijalaridan “Iqtisodiy o‘sh”, “Makroiqtisodiyot”, “Makroiqtisodiy siyosat va moliya bozorlari” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv dasturlari va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyotning inklyuziv o‘shini ta‘minlash bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar va takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “milliy iqtisodiyotning inklyuziv o‘shini” tushunchasining iqtisodiy mazmunini mamlakat aholisining barcha qatlamlari va ijtimoiy guruhlari iqtisodiy o‘sh natijalari va imkoniyatlaridan teng va adolatli foydalanishini ta‘minlovchi, kambag‘allikni qisqartirish, bandlik darajasini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni yaxshilashga qaratilgan barqaror iqtisodiy taraqqiyot modelini raqamlashtirish imkoniyatlari jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy ta‘limning 60310100 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “O‘rta makroiqtisodiyot” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2025-yil 11-martdagi 97-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy natijalardan o‘quv adabiyotlarida foydalanish talabalarda iqtisodiy o‘shning inklyuziv mohiyatini to‘g‘ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

aholiga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan barcha ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari raqamli texnologiyalar negiziga o‘tkazishda ijtimoiy to‘lov va subsidiyalarni belgilash va taqdim etish (ITS=0,56), monitoring qilish va baholash (MB=0,28), ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rstishni avtomatlashtirish (IXA=0,16) jarayonlari o‘rtasidagi maqbul nisbatlarini belgilash orqali amalga oshirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–267-son qarori ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-apreldagi 04/26-1-2-7729-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi dastlabki bosqichda barcha fuqarolar uchun elektron ijtimoiy karta muomalaga chiqarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra milliy iqtisodiyotning inklyuziv o‘shini ta‘minlashda davlat, jamiyat va biznes o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va o‘zaro hamkorlik mexanizmini barqaror bandlikni ta‘minlash,

mehnat samaradorligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan «ijtimoiy shartnoma» orqali takomillashtirish taklifidan oliy ta'limning 60310100 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “O'rta makroiqtisodiyot” nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 11-martdagi 97-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy natijalardan o'quv adabiyotlarida foydalanish talabalarda ijtimoiy shartnoma tizimi mohiyatini to'g'ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning inklyuziv o'sishi va raqamli transformatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2025-yil uchun “Byudjetnoma”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 7-apreldagi 04/26-1-2-7729-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi YaIM o'sish sur'ati va aholi jon boshiga YaIM hajmi bo'yicha o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 6 ta, shu jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, shulardan 2 tasi xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Raqamli transformatsiya sharoitida inklyuziv iqtisodiy o'sishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiyotni raqamlashtirishning zarurati, uning mazmun-mohiyati, inklyuziv o'sish tushunchalari va uning ko'rsatkichlari, iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali davlatning inklyuziv o'sishini ta'minlash bo'yicha xalqaro tajriba, tengsizlikni kamaytirish va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar bilan raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish zarurati

o'rganilgan. Raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy o'sishga yordam beradi, balki barcha ijtimoiy guruhlar uchun ochiqlik va tenglikni ta'minlashi nazarda tutilgan.

1-jadval

Iqtisodiy va inklyuziv o'sish hamda rivojlanish tushunchalari o'rtasidagi farq¹⁰


Mezon	Iqtisodiy o'sish	Iqtisodiy rivojlanish	Inklyuziv o'sish	Inklyuziv rivojlanish
Mazmuni	YaIM hajmining oshishi	Iqtisodiyot va hayot tarzidagi sifat o'zgarishlari	YaIM o'sishi + barcha qatlamlarga teng imkoniyatlar	Sifat o'zgarishlari + tengsizlikni bartaraf etish
E'tibor markazi	Miqdoriy ko'rsatkichlar	Miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining kombinatsiyasi	Barcha aholi qatlamlarini o'z ichiga olgan o'sish	Imkoniyatlar tengligi va farovonlikka yo'naltirilgan rivojlanish
O'lchov ko'rsatkichlari	YaIM, aholi jon boshiga YaIM	YaIM, IIR (Inson rivojlanishi indeksi), qashshoqlik, ta'lim, sog'liqni saqlash	YaIM + Jini koeffitsiyenti, bandlik, xizmatlardan foydalanish	IIR + texnologiya, ta'lim va institutlarga kirish imkoniyati
Foydani taqsimlash	E'tiborga olinmaydi	Qisman e'tiborga olinadi	E'tibor markazida: barcha ishtiroki	E'tibor markazida: barqaror ishtirok
Ijtimoiy adolat	Inkorga olinadi	Ikki darajali omil sifatida qaraladi	Konsepsiyaga kiritilgan	Asosiy element hisoblanadi
Barqarorlik	Shart emas	Ba'zan hisobga olinadi	Uzoq muddatli barqarorlikni ko'zda tutadi	Strategik tarzda kiritilgan
Davlatlar misoli	Qashshoqlikni kamaytirmagan keskin o'sish	Sog'liqni saqlash va ta'limni yaxshilash bilan o'sish	Janubiy Koreya, Kanada (ijtimoiy yo'naltirilgan o'sish)	Shvetsiya, Norvegiya (hayot sifati va tenglik yuqori)

Dunyoda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lingan turli mamlakatlar mavjud. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga ushbu mamlakatlarning iqtisodiy holatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy va inklyuziv o'sish hamda iqtisodiy va inklyuziv rivojlanish o'rtasidagi farqlar bizga mamlakatlar rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilishini, milliy va global miqyosda barqaror va adolatli rivojlanishga qanday erishish mumkinligini va nafaqat cheklangan guruhning, balki barcha fuqarolarning farovonligiga yordam beradigan

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

barqaror iqtisodiyotlarni yaratish mumkinligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu asosiy tushuncha yanada teng va farovon jamiyatlarni yaratish uchun samarali iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish uchun zarurdir (1-jadval).

Milliy iqtisodiyotning inklyuziv o‘sishi barqaror iqtisodiy rivojlanishning bir turi bo‘lib, aholining barcha guruhleri va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan, jumladan, raqamli texnologiyalar, bilimlar, infratuzilma va bozorlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi, ayni paytda ijtimoiy, mintaqaviy va raqamli tengsizlikni kamaytiradi¹¹. Demak, inklyuziv o‘sh, nazariy asos sifatida, barcha fuqarolarga iqtisodiy hayotda ishtirok etish uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash orqali ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish istagiga asoslanadi. Inklyuziv o‘sh konsepsiyasiga kelsak, u barqaror va adolatli iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, u nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shini, balki tengsizlikni kamaytirishni, aholining barcha qatlamlari uchun imkoniyatlarni kengaytirishni va imtiyozlarning yanada adolatli taqsimlanishini ta‘minlaydi.



1-rasm. Inklyuziv o‘shning asosiy tamoyillari¹²

Inklyuziv iqtisodiy o‘sh konsepsiyasining asosiy jihatlarida iqtisodiy manfaatlarni adolatli taqsimlash, aholining barcha qatlamlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish va barqaror rivojlanish uchun shart-sharoit yaratish muhimligi ta‘kidlangan. Inklyuziv o‘sh nafaqat yalpi ichki mahsulotning miqdoriy o‘shini, balki har bir fuqaroning hayotini yaxshilash, teng sharoitlar yaratish va butun jamiyat barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan sifat o‘zgarishlarini ham ko‘zda tutadi.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Inklyuziv o'sish har bir fuqaroning o'z potensialini to'liq ro'yobga chiqarishda teng imkoniyatga ega bo'lishini, jumladan, o'z mehnati uchun adolatli haq to'lash, imkoniyatlardan, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun hukumatlardan aniq siyosiy yordamni talab qiladi.

Ko'plab an'anaviy va zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari va inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etgan holda, raqamli transformatsiya XXI asrda iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omillaridan biri ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Zamonaviy iqtisodiyotda raqamlashtirish hayot tarzi va biznesga turli xil ta'sir ko'rsatadi, bu 2019-yil pandemiyasidan so'ng yaqqol ko'zga tashlandi. Hozirgi kunda, zamonaviy texnologiyalar va aloqa vositalarining tez rivojlanishida hayot tarzi va biznes yuritish usullarining o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Web-saytlardan foydalanish va aholi o'rtasida smartfonlarning ommalashishi biznes va xizmatlarni raqamli shaklga o'tkazishga olib keldi, bu esa aholiga qulaylik va yengillik yaratdi. Zamonaviy dunyoda raqamli transformatsiyani ko'plab olimlar o'rgangan va uning ijtimoiy hayotga va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini turli zamonaviy tadqiqot usullari bilan muhokama qilmoqdalar.

Xususiyl sektor bilan solishtirganda, raqamli texnologiyalar allaqachon joriy qilingan bo'lsa-da, davlat sektori ham raqamlashtirish orqali o'z faoliyatini yaxshilash imkoniyatlarini izlamoqda. Raqamli transformatsiyaning ahamiyatini tan olib, davlat sektorida elektron hukumat formatida raqamli texnologiyalar joriy etila boshlandi, ular fuqarolarning o'zgarib borayotgan talablarini qondirish, davlat resurslaridan samarali foydalanish va davlat xizmatlarining shaffofligini oshirishga yordam bermoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, davlat sektorida raqamli transformatsiya inklyuziv boshqaruv va boshqaruv samaradorligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Raqamli texnologiyalar aholi hayotining ajralmas qismiga aylanganidan so'ng, fuqarolar davlatdan xizmatlarning sifati, hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida raqamlashtirish vositalarini joriy etishni talab qila boshladi. Shu tariqa, raqamlashtirish vositalari davlat sektorida faol joriy etilayotgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini yaxshilash va aholini kengroq jalb qilish orqali jamoat tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaning kuchaytirilishiga qaratilgan.

Raqamli transformatsiya ko'plab ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi, jumladan, raqamli texnologiyalarni joriy etish indeksidan, raqamli evolyutsiya indeksidan, raqamlashtirish imkoniyatlari indeksidan, raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksidan foydalanish mumkin, bundan oldingi tadqiqotlarda ushbu ko'rsatkichlar ishlatilgan.

Xalqaro tajriba raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy inklyuziv o'sishni ta'minlashda davlatlar tomonidan qo'llaniladigan turli yondashuvlar va strategiyalarning rang-barangligini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya iqtisodiyot uchun yangi imkoniyatlar ochadi, ammo shu bilan birga, jamiyatga texnologiyalardan teng ro'yxatdan o'tish va raqamli tengsizlikni yengish masalalarini qo'yadi. Xalqaro tajriba va raqamlashtirish sohasidagi dasturlar O'zbekistonda inklyuziv o'sishni yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun

asosiy jihatlar raqamli infratuzilmani kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, raqamli moliya, ta'lim va sog'liqni saqlash platformalarini rivojlantirish, shuningdek, raqamli startaplar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. O'zbekiston, Estoniya, Hindiston, Kanada, Janubiy Koreya va Finlandiya kabi davlatlarning tajribasidan foydalanib, o'zining o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda eng yaxshi amaliyotlarni qo'llash mumkin.


2-jadval

Raqamli transformatsiya sharoitida inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha xalqaro tajriba¹³

Davlat	Raqamli transformatsiyaga yondashuv	Inklyuziv o'sish mexanizmlari	Natijalar va samaralar
Estoniya	Davlat xizmatlarining to'liq raqamlashtirilishi ("e-Estonia")	Elektron rezidentlik, ta'lim va tibbiyotga onlayn kirish	Raqamli ishtirok oshdi, biznes uchun to'siqlar kamaydi
Janubiy Koreya	AKTga sarmoyalar, "raqamli qishloqlar", IT-ta'lim davlat dasturlari	Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, qishloq aholisi uchun raqamli ta'lim	Raqamli tengsizlik kamaydi, samaradorlik oshdi
Finlandiya	Raqamli inklyuziya ijtimoiy siyosatning bir qismi sifatida	Asosiy daromad dasturi, barcha uchun internetga kirish imkoniyati	Hayot sifati yaxshilandi, yangi ijtimoiy yordam shakllari sinovdan o'tkazildi
Kanada	"Inklyuziv internet" raqamli strategiyasi	Onlayn ta'lim, ayollar va ozchiliklar orasida raqamli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash	Iqtisodiyot va bandlikda inklyuzivlik oshdi
Hindiston	"Raqamli Hindiston" dasturi	To'g'ridan-to'g'ri raqamli to'lovlar, raqamli ID kartalar (Aadhaar), raqamli xizmatlarga kirish	Qashshoqlik kamaydi, moliyaviy inklyuziya oshdi
O'zbekiston	"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi	Raqamli platformalarni yaratish, onlayn tizimlar orqali subsidiya berish, aholining AKT ko'nikmalarini rivojlantirish	Shaffoflik oshdi, ijtimoiy yordam qamrovi kengaydi


Dissertatsiyaning **"Raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonning inklyuziv o'sishini ta'minlash tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida inklyuziv o'sishni ta'minlashning hozirgi holati tahlili, inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda raqamlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi, raqamlashtirishning inklyuziv o'sishga ta'sirining ekonometrik tahlili ham o'tkazilgan, unga ko'ra empirik model ishlab chiqildi. Inklyuziv iqtisodiy o'sishning hozirgi holati tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatda izchil iqtisodiy o'sishga qaramay, daromadlar tengsizligi va kambag'allik darajasi muammo bo'lib qolmoqda.

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. O‘zbekistonda Jini koeffitsiyenti ko‘rsatkichlari¹⁴

Ko‘rsatkichning bosqichma-bosqich pasayishi aniq bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning o‘rtacha qisqarishidan dalolat beradi. Aholining eng kambag‘al 10 % daromadlari 6 %ga o‘ydi, eng boy 10 %ning daromadlari esa 30 %dan oshdi. Bu ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, badavlat kishilar orasida boylik o‘shishining yuqori sur‘atlari iqtisodiy tengsizlik muammosini yanada kuchaytiradi.




3-rasm. 2010–2024-yillarda O‘zbekistonning YaIM hajmi (milliard AQSh dollari)¹⁵

¹⁴ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan <https://data.egov.uz>.

¹⁵ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan. <https://www.macrotrends.net/global-metrics/cproduct>

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti 1991–2024-yillarda sezilarli darajada o‘sgan. O‘zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 1604 AQSh dollaridan 2496 AQSh dollariga ko‘tarildi. Bu mamlakatda yalpi ichki mahsulotning o‘shishi bilan bog‘liq. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston past daromadli davlatlar qatoriga kiritilgan edi. 2018–2024-yillarda yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotning o‘shishi munosabati bilan O‘zbekiston o‘rtachadan past daromadli mamlakatlar qatoriga kirgan¹⁶.



4-rasm. 2010–2024-yillarda O‘zbekistonning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM hajmi (milliard AQSh dollari)¹⁷


Bu esa iqtisodiy ishlab chiqarish aholi daromadlari darajasini oshirishning muhim omili ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, u iqtisodiy faollikning oshishi tufayli mamlakat qanday boyib ketganini tushuntiradi. Shunga qaramay, iqtisodiy o‘shishning yakuniy ta’siri kambag‘allikni kamaytirish edi. YaIM va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIMning o‘shishi tufayli milliy kambag‘allik chegarasidan pastda yashaydigan aholi ulushi 2002-yildagi 38,5 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha pasaymoqda.

Grafik ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat yalpi ichki mahsulotida asosan xizmat ko‘rsatish sohasi ustunlik qiladi. Uning yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi 2020-yildagi 39,8 foizdan 2024-yilda 41,50 foizga o‘ydi. Sanoat ishlab chiqarishi ushbu davrda barqaror saqlanib qolgan bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ushbu 5 yil davomida 29,7 foizdan 25,10 foizga kamaydi. Bu O‘zbekiston iqtisodiyoti bosqichma-bosqich qishloq xo‘jaligidan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslariga o‘tayotganidan dalolat beradi, bunda raqamlashtirish vositalari yanada o‘shida foydali bo‘lishi mumkin. Xususiy va

¹⁶ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan. <https://data.worldbank.org/?locations=UZ-XN>

¹⁷ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan. <https://www.macrotrends.net/global-metrics/cproduct>

davlat sektorida raqamlashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishdagi rolini alohida ta'kidlash lozim.



5-rasm. 2020–2024-yillarda O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining tarkibi¹⁸

O‘zbekiston hukumat portalida qayd etilishicha, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida raqamli transformatsiya sohasida tizimli yutuqlarga erishildi. Birinchi bosqichda raqamli transformatsiya jarayoni 2020–2022-yillarga, ikkinchi bosqichda esa 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan. Birinchi bosqichdagi raqamli transformatsiya natijalariga ko‘ra, raqamli transformatsiya uch yillik davr mobaynida sezilarli darajada rivojlangan.

3-jadval


O‘zbekistonda raqamli transformatsiya va inklyuziv o‘shish sohasidagi natijalar¹⁹

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Davlat xizmatlarini raqamlashtirish					
Raqamlashtirilgan davlat xizmatlari soni	218	300	370	570	700
Elektron hukumatdan foydalanuvchilar soni	3,1 mln	9,3 mln	14,2 mln	20 mln	32 mln
IT-parklar					
IT-park rezidentlari soni	—	—	—	1 652	1 652
Chet el kapitali ishtirokidagi rezidentlar soni	—	—	—	426	426
IT-park rezidentlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi	—	—	—	\$1,0 mlrd	\$1,0 mlrd
IT-park rezidentlari tomonidan IT xizmatlarini eksport qilish	—	—	—	\$344 mln	\$344 mln
Mamlakat bo‘ylab ochiq IT o‘quv markazlari soni	—	—	—	215	215

¹⁸ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan. <https://www.statista.com/statistics/1253988/gdp-distribution-by-sector-uzbekistan/>

¹⁹ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan.

To‘liq raqamli transformatsiya va inklyuziv o‘sh uchun ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan uchta asosiy yo‘nalish (5-rasm) mavjud.




6-rasm. Raqamli transformatsiya sharoitida inklyuziv o‘shni rivojlantirish yo‘nalishlari²⁰

Raqamli infratuzilma va uni joriy etish. Raqamli transformatsiyaning birinchi parametri raqamli infratuzilma hisoblanadi. O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning asosiy ko‘rsatkichi yoki harakatlantiruvchisi viloyat va tumanlar darajasida internet tezligi va ulanishni yaxshilaydigan infratuzilmani rivojlantirish hisoblanadi. Umuman olganda, BMTning telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish indeksi O‘zbekiston 0,8769 ball to‘plaganini ko‘rsatdi, bu jahondagi o‘rtacha 0,6896 balldan yuqori. Biroq, global va mintaqaviy yetakchi (BAA) 1,0 ballga ega, subregionda (Markaziy Osiyo) eng rivojlangan telekommunikatsiya infratuzilmasi Qozog‘istonda bo‘lib, 2024-yilda 0,9235 ball to‘plagan (6-rasm).

GovTech Quality Index indeksiga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekiston davlat sektorini raqamlashtirish reytingi 37 pog‘onaga ko‘tarilib, dunyoning 198 yetakchi davlati orasida “A” guruhiga kirdi. 2023-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston 2020-yilga nisbatan 37 pog‘ona yuqorilab, dunyoda 43-o‘rinni egallab, Braziliya, Koreya Respublikasi va Saudiya Arabistoni kabi davlatlardan iborat “A” guruhiga kirdi. O‘zbekiston 2022-yilda raqamli transformatsiya juda yuqori darajada bo‘lgan davlat sifatida tan olinishiga asos bo‘lgan so‘rovnoma Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti (UNDESA) orqali o‘tkazildi. Ushbu so‘rov davlat sektorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish darajasini baholovchi

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

elektron hukumatni rivojlantirish indeksining (EGDI) bir qismidir. EGDI indeksi har ikki yilda yangilanadi va mamlakatlarni uchta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha baholaydi:



7-rasm. Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish indeksi²¹

onlayn-servislar (xizmatlar) (E-Services) — fuqarolarga internet orqali taqdim etiladigan raqamli xizmatlarning mavjudligi va sifati;

inson kapitali (Human Capital) — bu ta’lim darajasi, raqamli ko‘nikmalar va aholi uchun AKTdan foydalanish imkoniyati;

infratuzilma (Telecommunications Infrastructure) — telekommunikatsiya infratuzilmasining mavjudligi va sifati.

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat” rivojlanish indeksi bo‘yicha ko‘rsatkichlari²²

Yil	EGDI reytingidagi o‘rni	EGDI indeksi	O‘zgarish
2022	69	0,7265	-
2024	63	0,7999	+6

Ko‘rsatkichning oshishi raqamlashtirish bo‘yicha turli tashabbuslarni joriy etish, onlayn xizmatlarni takomillashtirish, ta’lim darajasini oshirish va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq. EGDI indeksi mamlakatlarning raqamli

²¹ Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center/%20Country-Information/id/186-Uzbekistan>

²² Muallif tomonidan rasmiy manbalar asosida ishlab chiqilgan.

transformatsiyaga tayyorligini baholashning muhim vositasi bo'lib, davlat xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash uchun davlatlar texnologiyadan qanchalik samarali foydalanishini baholash imkonini beradi.

5-jadval

Tadqiqot uchun tanlangan mustaqil (x) va nazorat o'zgaruvchilari ²³

Mustaqil o'zgaruvchilar (x)	Indikatorlar
Internet darajasi	IPR
AKT natijalari	ICTO
Mobil kirish darajasi	MPR
Mobil bankingdan foydalanish darajasi	MBR
Elektron hukumat indeksi	EGI
Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi	TLI
YaIMga nisbatan elektron tijorat savdosi	EC
Boshqarish o'zgaruvchilari	
Bandlik darajasi	(cont_ER)
Mehnat unumdorligi	(cont_LP)
Inson kapitali indeksi	(cont_HCI)

Empirik tadqiqotda O'zbekistonda raqamlashtirish iqtisodiyotining inklyuziv o'sishga ta'siri 2020–2023-yillarda, ya'ni pandemiyadan keyingi davrda olib borildi. Inklyuziv o'sishning ko'rsatkichi sifatida aholi boshiga YaIM logarifmi va aholi boshiga YaMD logarifmi tanlangan. Bu o'zgaruvchi tadqiqotda mustaqil o'zgaruvchi (y) sifatida qabul qilindi. Raqamlashtirishning indikatorlari uchun bir necha o'zgaruvchilardan iborat to'plam tanlandi va ular mustaqil o'zgaruvchi (x) sifatida qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqotda bir necha nazorat o'zgaruvchilari tanlandi. Bu o'zgaruvchilarning tavsifi va ularning ehtimoliy proksilarini hamda indikatorlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (5-jadval).

Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil o'zgaruvchilar raqamli transformatsiyaning, bog'liq o'zgaruvchilar esa inklyuziv o'sishning determinanti hisoblanadi. Tanlangan mustaqil (x), bog'liq (y) va nazorat o'zgaruvchilari asosida ushbu tadqiqotda 3 xil model ishlab chiqilgan.

1-model raqamli transformatsiya (mustaqil o'zgaruvchilar) va inklyuziv rivojlanish ko'rsatkichini, ya'ni aholining har kishi uchun YaIM logarifmining o'zaro aloqasi va ta'sirini tadqiq etadi.

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$$\log_GDPP_t = \alpha_0 + \alpha_1 IPR_t + \alpha_2 ICTO_t + \alpha_3 MPR_t + \alpha_4 MBR_t + \alpha_5 EGI_t + \alpha_6 TLI_t + \alpha_7 EC_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

Tadqiqotda, shuningdek, raqamli iqtisodiy transformatsiyaning inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'siri, aholining har kishi uchun YaMDning logarifmi orqali o'lanadi. Shuning uchun ushbu aloqani tekshirish uchun **2-model** ishlab chiqildi.

$$\log_GNI_t = \beta_0 + \beta_1 IPR_t + \beta_2 ICTO_t + \beta_3 MPR_t + \beta_4 MBR_t + \beta_5 EGI_t + \beta_6 TLI_t + \beta_7 EC_t + \varepsilon_t \quad (2)$$

Tadqiqotda, shuningdek, sanoat raqamli transformatsiyasi va uning inklyuziv iqtisodiy o'sishga ta'sirini, nazarda tutish (zavisim o'zgaruvchilar) o'zgaruvchilar bilan tadqiq qilish uchun uchinchi model ishlab chiqildi. **3-model** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

